

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA XITOYNING TA'SIRI

Sobirjonova Saida Sarvar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro Jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich talabasi talabasi

+998 94 944 89 83, [sobirjonovasaida73@gmail.com](mailto:sobirjonovasaida73@gmail.com)

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.06.2026

Revised: 11.06.2026

Accepted: 12.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

Xitoy, Markaziy  
Osiyo, "Bir kamar, bir  
yo'l" g'oyasi,  
geosiyosat, kuzatuv  
texnologiyalari, ko'p  
vektorli diplomatiya

Ushbu maqola Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasidagi kuchayib borayotgan ta'sirini ko'p o'lchovli yondashuv asosida tahlil qiladi. Tadqiqot iqtisodiy hamkorlik va savdo, infratuzilma va tranzit yo'laklari, texnologik ta'sir va diplomatik aloqalarni qamrab oladi. Maqolada "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi mintaqa infratuzilmasini o'zgartirayotgani, savdo hajmi 106 milliard dollardan oshgani hamda Huawei va Hikvision kabi kompaniyalar telekommunikatsiya va "smart shahar" loyihalari orqali ta'sirini kuchaytirayotgani ko'rsatiladi. Shu bilan birga, kuzatuv texnologiyalarining kengayishi inson huquqlari va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqarishi ta'kidlanadi. Rossiya e'tiborining Ukrainadagi urush sabab susayishi va G'arb ta'sirining kamayishi fonida Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoyga iqtisodiy hamda texnologik bog'liqligi ortib borayotgani qayd etiladi. Xulosa sifatida, Xitoy mintaqada uzoq muddatli strategik ta'sir tizimini shakllantirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan buyon xalqaro siyosatda strategik ahamiyat kasb etuvchi hudud sifatida shakllanib kelmoqda. Mintaqa Yevropa va Osiyo o'rtasidagi transport hamda savdo yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashgani, tabiiy resurslarga boyligi va yirik davlatlar manfaatlari tutashadigan makon ekanligi sababli doimiy ravishda tashqi kuchlar e'tiborida bo'lib kelgan. Shu bilan birga, mintaqada davlatlarining siyosiy rivojlanish darajasi, iqtisodiy imkoniyatlari va xavfsizlik bilan bog'liq muammolari Markaziy Osiyoni geosiyosiy raqobat maydoniga aylantirib bormoqda. Sovet Ittifoqi parchalangach, Markaziy Osiyo davlatlari yangi siyosiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish jarayoniga kirishdi. Dastlabki davrlarda Rossiya tarixiy, madaniy va xavfsizlik omillari sabab mintaqadagi asosiy tashqi ta'sir markazi sifatida qolgan edi. Biroq XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab mintaqadagi kuchlar muvozanati asta-sekin

o‘zgarishni boshladi. Ayniqsa, Xitoyning iqtisodiy salohiyati ortishi, tashqi siyosatining faol tus olishi va global transport tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyasi Markaziy Osiyoni Pekinning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Xitoyning mintaqadagi ta’siri faqat iqtisodiy hamkorlik bilan cheklanib qolmay, balki infratuzilma qurilishi, energetika loyihalari, transport yo‘laklari, raqamli texnologiyalar, xavfsizlik hamkorligi hamda diplomatik aloqalar orqali ham kengayib bormoqda. Mintaqa davlatlari uchun Xitoy investitsiyalari iqtisodiy o‘shish va modernizatsiya imkoniyatlarini yaratayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan tashqi qarzdorlik, strategik bog‘liqlik va siyosiy ta’sirning ortishi bilan bog‘liq muhokamalarni ham yuzaga keltirmoqda.

2013-yilda Xitoy Prezidenti Si Szinpin Qozog‘istonning Astana shahrida “Ipak yo‘li iqtisodiy kamari” tashabbusini e‘lon qildi va bu voqea Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan uzoq muddatli geostrategik yondashuvining muhim bosqichi bo‘ldi.[1] Keyinchalik ushbu tashabbus “Bir kamar , bir yo‘l” (Belt and Road Initiative — BRI) konsepsiyasi doirasida kengaytirildi hamda global miqyosdagi eng yirik infratuzilmaviy va iqtisodiy loyihalardan biriga aylandi. Mazkur tashabbus orqali temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, logistika markazlari, energetika obyektlari va raqamli infratuzilmalar rivojlantirilmoqda. So‘nggi yillarda xalqaro siyosiy vaziyatdagi o‘zgarishlar ham Xitoyning mintaqadagi rolini kuchaytirishga xizmat qildi. Rossiyaning Ukrainadagi urush sabab geosiyosiy resurslari qayta taqsimlangani va AQShning Markaziy Osiyodagi faolligi nisbatan kamaygani natijasida mintaqada yangi strategik imkoniyatlar yuzaga keldi.[2] Xitoy esa ushbu sharoitdan foydalanib, iqtisodiy va texnologik hamkorlikni chuqurlashtirish orqali o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga intilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya va “aqlli shahar” loyihalari doirasida Xitoy kompaniyalarining telekommunikatsiya hamda kuzatuv texnologiyalari bozoridagi faolligi ham ortmoqda. Bu jarayon bir tomondan modernizatsiya va samaradorlikni ta‘minlasa, ikkinchi tomondan ma‘lumotlar xavfsizligi, inson huquqlari va texnologik suverenitet masalalari bo‘yicha yangi savollarni keltirib chiqarmoqda.

**Iqtisodiy ta’sir va savdo.** Xitoy bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng muhim iqtisodiy hamkorlardan biriga aylandi. So‘nggi yillarda savdo hajmining izchil o‘shishi mintaqada iqtisodiy bog‘liqlikning kuchayib borayotganini ko‘rsatmoqda. 2025-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi umumiy savdo hajmi 106,3 milliard dollarga yetgan bo‘lib, bu avvalgi yilga nisbatan 12 foizlik o‘shishni anglatadi.[3] Ushbu ko‘rsatkich Xitoyning mintaqadagi iqtisodiy mavqei sezilarli darajada mustahkamlaganini ko‘rsatadi. Investitsiyalar tarkibi ham sezilarli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Agar dastlabki bosqichlarda asosiy e‘tibor neft-gaz, qazib olish sanoati va xom ashyo eksportiga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi davrda qayta ishlash sanoati, sanoat zonalari, yashil energetika va logistika infratuzilmasi ustuvor yo‘nalishlarga aylanmoqda.[4] Bu esa Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarini yanada diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda . Shuningdek, inson kapitaliga yo‘naltirilgan loyihalar ham

kengaymoqda. BRI doirasida Qozog‘iston va O‘zbekistonda 2022-yildan boshlab “Luban ustaxonalari” faoliyat boshladi.[5] Ushbu markazlar mahalliy muhandislar va texnik mutaxassislarni Xitoy uskunalarini hamda sanoat standartlari asosida tayyorlashga qaratilgan. Bir tomondan bu texnologik malaka oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan mintaqaning texnik standartlari va ishlab chiqarish tizimlarini uzoq muddatda Xitoy sanoat ekotizimiga bog‘lash ehtimolini kuchaytiradi. Natijada iqtisodiy hamkorlik oddiy savdo aloqalaridan chiqib, strategik iqtisodiy integratsiya bosqichiga o‘tmoqda.

**Infratuzilma va tranzit yo‘laklari.** Markaziy Osiyo Xitoyning Yevropa va Yaqin Sharq bilan bog‘lovchi geostrategik transport konsepsiyasida markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “O‘rta yo‘lak” (Middle Corridor) tashabbusi Xitoy uchun muqobil logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish vositasiga aylandi. Ushbu yo‘nalish Xitoydan Markaziy Osiyo orqali Kavkaz, Turkiya va Yevropaga chiqishni ta‘minlaydi. 2025-yilda “China Rail” va Turkiyaning “Pasifik Eurasia” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan kelishuv natijasida Chengdu va Chongqing shaharlaridan birinchi yuk poyezdlari yangi yo‘nalish bo‘ylab harakatlana boshladi.[6] Bu tashabbus Rossiya hududidan o‘tuvchi an‘anaviy transport yo‘laklariga qaramlikni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Energetika sohasida ham Xitoyning faol ishtiroki kuzatilmoqda. CNPC va Qozog‘istonning “Samruk-Qazyna” kompaniyalari hamkorligidagi neft-gaz loyihalari mintaqaning eksport salohiyatini kengaytirmoqda.[7] Shu bilan birga, “PetroChina” tomonidan Markaziy Osiyo–Xitoy gaz quvurining D liniyasini rivojlantirish rejasi e‘lon qilindi. Ushbu loyiha energiya tashish geografiyasini diversifikatsiya qilish va yangi tranzit imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Natijada infratuzilmaviy hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ta‘sir vositasiga ham aylanmoqda.

**Texnologik ta‘sir va kuzatuv tizimlari.** Raqamli transformatsiya Xitoyning Markaziy Osiyodagi ta‘sirining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Telekommunikatsiya, sun‘iy intellekt va raqamli boshqaruv tizimlari orqali Xitoy kompaniyalari mintaqaning texnologik infratuzilmasida muhim o‘rin egallamoqda. Huawei va Hikvision kabi kompaniyalar telekommunikatsiya tarmoqlari, video kuzatuv tizimlari va “smart city” platformalarini rivojlantirishda faol qatnashmoqda.[8]. O‘zbekistonda transport monitoring tizimi, Tojikistonda telekommunikatsiya tarmoqlarining katta qismi hamda Qirg‘izistondagi aloqa infratuzilmasi bunga misol bo‘la oladi.[9]. Biroq ushbu jarayon bilan birga ma‘lumotlar xavfsizligi va inson huquqlari masalalari ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Kuzatuv texnologiyalarining davlat boshqaruvi tizimlariga integratsiyalashuvi fuqarolar shaxsiy ma‘lumotlarining himoyasi bilan bog‘liq savollarni keltirib chiqarmoqda.[10]. Ayrim tadqiqotlar yuzni tanish texnologiyalari va etnik identifikatsiya imkoniyatlari mavjudligini qayd etgan.[11].

2025-yilda Astanadagi sammit doirasida Qirg‘izistonda “Xitoy–ShHT Sun‘iy Intellekt Hamkorlik Markazi”ni tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.[12]. Ushbu tashabbus

orqali Xitoy texnologik standartlari va raqamli boshqaruv modellari mintaqada yanada kengroq yoyilishi mumkin.

**Diplomatik hamkorlik va ko‘p vektorli balans.** Xitoyning Markaziy Osiyodagi ta’siri faqat iqtisodiy yoki texnologik omillar bilan cheklanmaydi. Diplomatik hamkorlik va siyosiy aloqalar ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yil iyun oyida Astanada o‘tkazilgan ikkinchi “Xitoy–Markaziy Osiyo Sammiti” davomida tomonlar “Abadiy qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Shartnoma”ni imzoladilar.[13] Ushbu hujjat siyosiy ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiya va infratuzilmaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari an’anaviy ravishda ko‘p vektorli diplomatiya tamoyiliga amal qilib kelmoqda. Ular Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa va boshqa tashqi kuchlar bilan muvozanatli aloqalarni saqlashga intiladi.[14] Biroq xalqaro tizimdagi o‘zgarishlar natijasida mintaqadagi geosiyosiy nisbatlar asta-sekin Xitoy foydasiga siljimoqda. Natijada Xitoyning mintaqadagi roli iqtisodiy sherik maqomidan chiqib, strategik va tizimli ta’sir markaziga aylanish jarayonini namoyon etmoqda.

**Imkoniyatlar va xavf-xatarlar.** Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta’sirini baholashda biryoqlama yondashuv yetarli emas. Mazkur jarayon bir vaqtning o‘zida ham rivojlanish imkoniyatlarini, ham yangi strategik xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli Xitoyning mintaqadagi o‘rnini baholash iqtisodiy natijalar, siyosiy mustaqillik, texnologik xavfsizlik va ijtimoiy qabul qilinish kabi bir nechta o‘lchovlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ijobiy jihatdan qaralganda, “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi investitsiyalar Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy modernizatsiyasiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishi ichki va tashqi savdo oqimlarini kengaytirish imkonini berdi, energetika yo‘nalishlarining diversifikatsiyasi esa eksport imkoniyatlarini oshirdi. Shuningdek, sanoat zonalarini, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik loyihalar orqali bandlikni ta’minlashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatildi. 2025-yilda ayrim Markaziy Osiyo davlatlarida qayd etilgan yuqori iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatadi. Xususan, Tojikistonda iqtisodiy o‘sish 7,5 foizga, Qirg‘izistonda esa 8,0 foizga yetgani mintaqaning investitsion faolligi va iqtisodiy integratsiyasi kuchayganidan dalolat beradi.[15] Bu ko‘rsatkichlar tashqi investitsiyalar va infratuzilmaviy rivojlanishning qisqa muddatli iqtisodiy foydasini namoyon etadi.

Biroq ushbu jarayon bilan bog‘liq xavf-xatarlar ham mavjud. Eng avvalo, iqtisodiy qaramlik masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Mintaqaning iqtisodiy jihatdan zaifroq davlatlari yirik investitsiya va kredit oqimlari sabab tashqi ta’sirlarga ko‘proq ochiq bo‘lib qolmoqda. Uzoq muddatda bu holat iqtisodiy siyosatning mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Texnologik hamkorlik ham murakkab natijalarni yuzaga keltirmoqda.

Telekommunikatsiya, raqamli boshqaruv va kuzatuv infratuzilmasining Xitoy kompaniyalari tomonidan qurilishi ma'lumotlarni boshqarish, kiberxavfsizlik va davlat suvereniteti bilan bog'liq yangi xavflarni keltirib chiqarmoqda.[16] Ayniqsa, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va raqamli monitoring tizimlarining keng joriy etilishi davlatlarning texnologik mustaqilligiga ta'sir qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Xitoyning mintaqadagi ta'siri jamiyatlar tomonidan bir xil qabul qilinmayapti. Ayrim ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aholining ma'lum qismi — ayniqsa Xitoy bilan chegaradosh davlatlarda — iqtisodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlasada, siyosiy va demografik ta'sirning ortishidan xavotir bildirmoqda.[17] Bu esa Xitoyning "yumshoq kuch" (soft power) siyosatini to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini cheklovchi omillardan biri sifatida qaralmoqda.

### **Rossiya va G'arb raqobati kontekstida.**

Markaziy Osiyodagi geosiyosiy muvozanatni tushunishda Rossiya, Xitoy va G'arb o'rtasidagi raqobat muhim omil hisoblanadi. Tarixan Rossiya mintaqada xavfsizlik, migratsiya, energetika va siyosiy hamkorlik yo'nalishlarida yetakchi rol o'ynab kelgan. Sobiq Sovet hududi bilan tarixiy bog'liqlik Moskvaning ta'sirini uzoq vaqt davomida saqlab turdi. Ammo Ukrainadagi harbiy mojaro boshlanganidan so'ng Rossiyaning tashqi siyosiy va iqtisodiy resurslari boshqa yo'nalishlarga yo'naltirildi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari yangi tashqi hamkorlarni faolroq jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu sharoitda Xitoy iqtisodiy va diplomatik vositalar orqali bo'shliqni to'ldirishga muvaffaq bo'ldi.[18]. Qiziqarli jihati shundaki, Rossiya va Xitoy strategik hamkor sifatida ko'rilishiga qaramay, Markaziy Osiyoda ularning manfaatlari har doim ham to'liq mos kelmaydi. Rossiyaning Xitoy bilan iqtisodiy aloqalari kuchayib borayotgan bir vaqtda Moskva Pekinning mintaqadagi ta'siri ortishini amalda qabul qilishga majbur bo'lmoqda.

**Xulosa.** Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta'siri ko'p o'lchovli va tizimli xarakter kasb etgan. Iqtisodiy investitsiyalar, energetika hamkorligi, texnologik infratuzilma va diplomatik institutlar majmuasi orqali Pekin mintaqada yangi arxitektura shakllantirib bormoqda — bu arxitektura uzoq muddatli strategik aloqalarni ta'minlovchi zamin hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari ko'p vektorli diplomatiya siyosatini saqlash imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, ularning Xitoyga bog'liqligi — ayniqsa savdo, investitsiyalar va texnologiya sohalarida — tizimli xarakter kasb etmoqda. Bu vaziyat davlatlarning mustaqil qarorlar qabul qilish salohiyatiga amaliy cheklovlar qo'yishi mumkin.

Xitoy ta'sirining uzoq muddatli oqibatlarini to'liq baholash uchun keyingi tadqiqotlar texnologik qaramlik, ma'lumotlar boshqaruvi va mintaqaviy jamiyatlarning Xitoy ta'siriga bo'lgan munosabatini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Shunday bo'lsa ham, mavjud ma'lumotlar shuni aniq ko'rsatadiki, Xitoy Markaziy Osiyodagi strategik kuchlar muvozanatida asosiy o'yinchi sifatida o'rnini mustahkam egallagan.

=====

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Vanguard Think Tank. The Presence of China in Central Asia. – <https://vanguardthinktank.org/the-presence-of-china-in-central-asia>
2. E-International Relations. China's Growing Role in Central Asia. – February 16, 2025. <https://www.e-ir.info/2025/02/16/chinas-growing-role-in-central-asia/>
3. Euronews. China set new records in trade and investment in Central Asia in 2025. – April 15, 2026. <https://www.euronews.com/2026/04/15/china-set-new-records-in-trade-and-investment-in-central-asia-in-2025>
4. China-Global South Project. China-Central Asia in 2026: From Resource Access to Structured Interdependenc. – January 13, 2026. <https://chinaglobalsouth.com/analysis/2026-outlook-china-central-asia/>
5. Caspianpost.com. China's Influence in Central Asia: Economic Dominance, Soft Power, and Security Concerns. – September 29, 2024. <https://caspianpost.com/opinion/china-s-influence-in-central-asia-economic-dominance-soft-power-and-security-concerns>
6. East Asia Forum. China remains pivotal to Central Asia's balancing act. – August 28, 2025. <https://eastasiaforum.org/2025/08/28/china-remains-pivotal-to-central-asias-balancing-act/>
7. E-International Relations. China's Growing Role in Central Asia. – 2025. (op. cit.)
8. Foreign Policy. China's Surveillance State Has Eyes on Central Asia. – November 15, 2019. <https://foreignpolicy.com/2019/11/15/huawei-xinjiang-kazakhstan-uzbekistan-china-surveillance-state-eyes-central-asia/>
9. Ibid.
10. Caspian Policy Center. China's Growing Influence in Central Asia Through Surveillance Systems. Policy Brief. – September 2020. <https://api.caspianpolicy.org/media/uploads/2020/09/PB-Chinas-growing-influence-in-CA-through-surveillance-systems.pdf>
11. Foreign Policy. China's Surveillance State Has Eyes on Central Asia. – (op. cit.)
12. FPRI. Reordering Central Asia: China's Emerging Economic Hierarch. – May 2026. <https://www.fpri.org/article/2026/05/reordering-central-asia-chinas-emerging-economic-hierarchy/>
13. East Asia Forum. China remains pivotal to Central Asia's balancing act. – (op. cit.)
14. Ibid.
15. East Asia Forum. Central Asia balances growth and great powers. – December 31, 2025. <https://eastasiaforum.org/2025/12/31/central-asia-balances-growth-and-great-powers/>
16. Times of Central Asia. The Battle for Control Over Central Asia's Digital Future. – June 23, 2025. <https://timesca.com/the-battle-for-control-over-central-asias-digital-future/>

=====

17. Oxford Academic / International Affairs. In the shadow of the dragon: Chinese soft power in central Asia. – July 2025.

<https://academic.oup.com/ia/article/101/4/1441/8178344>

18. E-International Relations. Central Asia's Ascent: From Geopolitical Object to Collective Actor. – April 2026. <https://www.e-ir.info/2026/04/21/central-asias-ascent-from-geopolitical-object-to-collective-actor/>

19 .East Asia Forum. Central Asia balances growth and great powers. – (op. cit.)